XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 27 - aprel VI-84-71-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va xalq deputatlari shahar Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (VI-77-251-7-107-K/22-sonli) qaroriga asoslanib, shuningdek, shaharda bir qator ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida shahar mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobiidan foydalanish yuzasidan shahar hokimi o‘rinbosarlari (F.Najmiddinov, E.Radjabov, O.Xaitov, Z.Saidova) va shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)ning 2023-yil 4-apreldagi bildirishnomasi hamda shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)ning 2023-yil 6-apreldagi 01-38/184-sonli xulosa xatiga muvofiq, xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdan tashqari VI-chaqiriq, LXXXIV sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimi o‘rinbosarlari (F.Najmiddinov, E.Radjabov, O.Xaitov, Z.Saidova) va shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)ning 2023-yil 4-apreldagi shahar mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan jami **7 ta** tadbirlar uchun **768 006.1** (yetti yuz oltmish sakkiz million olti ming bir yuz) so‘mlik mablag‘lar ilovaga

muvofiq ajratilsin.

3. Shahar hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(Mamadaliyev)**, shahar hokimligi bosh hisobchisi **(Tursunova)**larga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish hamda maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(Mamadaliyev)**ga shahar mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, shahar g‘aznachilik bo‘linmasi **(Amirov)**ga mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **(Sayfiddinova)** va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **(Radjabov)** zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 27 apreldagi
VI-84-71-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar
HISOB-KITOBI

T/r	**Mablag‘ ajaratiladigan tashkilotlar nomi**	**Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi**	**Asos bo‘luvchi xujjatlar**	**Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)**

1	Shahar hokimligiga	Shahar hokimligi apparati xodimlariga yetarli shart sharoitlarni yaratish va ular mehnatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2023-yilning aprel-iyun oylari uchun moddiy rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi kasaba uyushmasi qo‘mitasi va shahar hokimi o‘rinbosarlari (F.Najmiddinov,O.Xaitov, E.Radjabov, Z.Saidova) hamda shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)ning 2023-yil 04-apreldagi qo‘shma bildirishnomasi	462 388,9
2		Shahar hokimligi binosida xizmat vazifasini amalga oshirayotgan Milliy Gvardiya xodimlarining 2023-yil fevral-mart oylarida amalga oshiradigan xizmatlari jarayonida to‘lanishi lozim bo‘lgan ish haqi bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi bosh hisobchisi (D.Tursunova) 2023-yil 04-apreldagi bildirishnomasi	97 808,4
3		Shahar hokimligi "Mahfiy xonasi"ni Milliy Gvardiya tomonidan 2023-yil yanvar-mart oylarida qo‘riqlash bilan bog‘liq xarajatlarga		5 517,9
4		Shahardagi 7 ta (Xo‘jasoat, Qavola, Zulfiya, Yominiy, Bog‘imirzo, Bog‘itemur, Semurg‘) mahalla fuqarolar yig‘inlari binolarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish (10500,0 mimg so‘m) hamda 6 ta mahalla binosini kadastr pasportini shakllantisrish (4326,0 ming so‘m) bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (J.Qodirov)ning 2023-yil 4-apreldagi 07/282-sonli murojaati	14 826,0
5		O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining (G‘.Mirzaev)ning 2023-yil 11-martdagi xatiga muvofiq, shahar hokimining jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha maslahatchisi (X.Nurullaev)ning 2023-yil 3-oylik ish haqi to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimining 2023-yil 15-martdagi 04-QM-sonli qarori	35 200,0
6		Samarqand shahar hokimligi huzuridagi “Binolardan foydalanish uy-joy va yakka tartibda uy-joy qurilish masalalarini muvofiqlashtirish” departamenti DUK ishchi xodimlarining ish haqi to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlarga	Samarqand shahar hokimligi huzuridagi “Binolardan foydalanish uy-joy va yakka tartibda uy-joy qurilish masalalarini muvofiqlashtirish” departamenti DUKning 2023 yil 27-martdagi 72-sonli murojaati	50 000,0

7	Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limiga	Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlariga yetarli shart sharoitlarni yaratish va ular mehnatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2023-yilning aprel-iyun oylari uchun moddiy rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi kasaba uyushmasi qo‘mitasi va shahar hokimi o‘rinbosarlari (F.Najmiddinov,O.Xaitov, E.Radjabov, Z.Saidova) hamda shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliev)ning 2023-yil 04-apreldagi qo‘shma bildirishnomasi	102 264,9
	Jami			**768 006.1**